



# iQRO JOURNAL

## BIZNING YO'NALISHLARIMIZ

- 1. Tibbiyot fanlari**
- 2. Pedagogika fanlari**
- 3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar**
- 4. Aniq fanlar**
- 5. Tabiiy fanlar**
- 6. Iqtisod fanlari**
- 7. Psixologiya fanlari**
- 8. San'at va madaniyat fanlari**
- 9. Filologiya fanlari**
- 10. Texnika fanlari**



Website:

<https://wordlyknowledge.uz>

**Yuldasheva Muhabbat Bayrambayevna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy nazoratchi:**Navruzov Ulug'bek**

---

## **MATEMATIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA HAMKORLIK VA GURUH ISHLASHINING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik muammolarni hal qilish jarayonida hamkorlik va guruh ishining ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda, guruhiy muammolarni hal qilish faoliyatları orqali o'quvchilar o'rtaşıdagi muloqotni kuchaytirish muhimdir. Maqloda o'quvchilarning birgalikda ishlash jarayonida o'zaro yordam berish, fikr almashish va birgalikda yechimlar topishning ahamiyati ko'rsatilib, bunday yondashuvlar o'quv jarayoniga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida misollar keltiriladi. Shuningdek, boshlang'ich sinfda hamkorlik asosida o'quv faoliyatlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** interfaollik, boshlang'ich ta'lif, matematik muammolar, hamkorlik, guruh ishlashi, mantiqiy fikrlash, o'quv jarayoni, o'zaro yordam, fikr almashish.

---

Ma'lumki, ta'lif jarayoni o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma, malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirishmaqsadiga yo'g'irilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi.

Boshqacha qilib aytganda, ta'lif mazmunini o'qitish metodlari yordamida o'zlashitirishiga erishishdir. Metod so'zi umumiyligi ma'noda muayyan erishish usulidir. O'qitish metodlari tom ma'noda o'qituvchining bilimlarini o'quvchilar ongiga yetkazish va ayni paytida ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olishidir.

Dars jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda interfaol metodidan foydalanish samarali bo'ladi. Interfaol inglizcha "interast" so'zidan olingan bo'lib, inter- hamkorlikda, akt-harakat qilmoq ma'nosini bildiradi.

**Interfaollik** deganda o'quvchining o'qituvchi bilan, o'quvchining o'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda yoki kompyuter bilan muloqoti o'zaro ta'sir ko'rsatish rejimida ishlashi tushuniladi.

Interfaol o'qitish- bu, avvalo, dialog tarzda o'qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir.

Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati- o'qitish jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni , voqealar va hodisalarining rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantini tavsiya etadi.

O'quv materialini o'rganish, muammoni hal etish bo'yicha turli variantdagagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o'quvchilarning hamkorligi har bir o'quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o'z ulushini qo'shishga, ular o'rtaşıda fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiyligi, qulay ijtimoiy psixologik, o'zaro yordam muhitida sodir bo'lgani uchun o'quvhilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar ,

balki o'zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko'tarib, hamkorlikka kirishishiga imkon beradi.

O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib, umumiyligi bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishadilar. Ular o'rtaida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o'quvchining ustunlik qilishi, uning o'z fikrini o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatlari tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrlarini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga ko'nikmalarini egallaydi.

O'qitishda interfaol metodning quyidagi xususiyatlari mavjud:

-insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo'lgan muloqot- o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi;

-o'qitish jarayonida o'quvchilarga o'z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlari beriladi;

-o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatidan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi;

-o'quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari yetarli emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo'lismiga erishish lozimligini anglaydilar;

-o'quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo'yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to'g'riliigni tekshirib ko'rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishishlari lozim.

Dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vazifalarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Bu metodlar guruhi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini birgalikda topishlari, mo'ljalni to'g'ri olishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematik muammolarni hal qilishda hamkorlik va guruh bo'lismiga ishslash nafaqat bilim almashinuvini kuchaytiradi, balki o'quvchilarda muloqot, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish va muammolarni ijodiy hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruh ishlarihar bir ishtirokchini faol bo'lismiga undaydi va o'zini erkin ifoda etishga imkon beradi. Natijada, o'rganuvchilar nafaqat matematikani chuqurroq o'zlashtiradi, balki jamoada ishlash madaniyatini ham egallaydi. Shu

bois, zamonaviy ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

- 1. Matematika va uni o’qitish metodikasi-2021**
- 2. Umumiy metodika J.A.Usarov, A.K.Yusupov, D.M.Mahmudova**
- 3. Ma’lumotlar bazasi-24.09.2020**
- 4. Toshkent-2018**

<b>ASOSLARI</b>	
Mamatova Nilufar Abduxoshimovna	
<b>APPLICATION OF SPECIAL AND IMPROPER INTEGRALS TO ECONOMICS: A COMPREHENSIVE OVERVIEW</b>	949
Akhmedov Sher dor, Tokhirova Maryamoy	
<b>KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING TA'SIRI VA AHAMIYATI</b>	953
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
<b>BOLALAR UCHUN MATEMATIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL MATERIALNARING ROLI</b>	956
Sobirova Dilafruz Safarboy qizi, Ro'zimboyeva Farangiz Jamolovna, Navruzov Ulug'bek	
<b>BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK MATNLARI O'QITISH</b>	959
Bekmurodova Sarvinoz Ashrafovna, O'r az boyeva Charos Davron qizi, Navruzov Ulug'bek Bababekovich	
<b>ƏLİ NƏZMI MİRZƏ ƏLƏKBƏR SABİR SATIRİK ƏDƏBİ MƏKTƏBINİN DAVAMÇISI KİMİ</b>	962
Ulduz Fərhad Qəhrəmanova	
<b>O'QUVCHI-YOSHLARDA INSONPARVARLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIYA FANINING AHAMIYATI</b>	974
Akramov Eldor Parmonovich	
<b>NEOLOGISMS AND THE DYNAMIC DEVELOPMENT OF THE ENGLISH LANGUAGE</b>	977
Jumamuratova Rahimaxon Hikmat qizi, Bazarbaeva Albina Mingalievna	
<b>MATEMATIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA HAMKORLIK VA GURUH ISHLASHINING AHAMIYATI</b>	981
Yuldasheva Muhabbat Bayrambayevna, Navruzov Ulug'bek	
<b>МОЛИЯВИЙ ХАВФСИЗЛИККА АСОСЛАНГАН БАНК ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ</b>	984
Исламова Наргиза Мирзахидовна	
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSİYANING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR</b>	995
Israilova Xusnida Adilovna	
<b>QAHRAMON VA SHAROIT</b>	1000
Ergashov Bekzod Jahongir o'g'li	